

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

RAUPOV JAMSHID RASHIDOVICH

**ELEKTRON TIJORATNING GEOLOKATSION PLATFORMASI
KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation on
economical sciences**

Raupov Jamshid Rashidovich

Elektron tijoratning geolokatsion platformasi konsepsiyasini
ishlab chiqishni takomillashtirish..... 3

Раупов Жамшид Рашидович

Совершенствование разработки концепции геолокационной
платформы электронной коммерции..... 25

Raupov Jamshid Rashidovich

Improvement of the development of the concept of an e-commerce
geolocation platform 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 54

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

RAUPOV JAMSHID RASHIDOVICH

**ELEKTRON TIJORATNING GEOLOKATSION PLATFORMASI
KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3372 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning vebsahifasida (www.rgsbm.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Eshchanov Baxtiyor Ruzimbaevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kenjabayev Aman Turg'unovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdullayev Munis Kurbanovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), professor


Yetakchi tashkilot: **Toshkent shahridagi Inha universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.19/04.07.2023.I.88.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "14" 11 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100060, Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel.: (71) 239-03-05; faks: (71) 239-03-03; e-mail: info@rgsbm.uz.


Dissertatsiya bilan Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (12 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel.: (71) 239-03-05; faks: (71) 239-03-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "31" 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil "28" 10 dagi 12 - raqamli reestr bayonnomasi).




D.X. Suyunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor


T.U. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.n., professor


A.T. Kenjabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali oddiy fuqarolar, xususiylar tadbirkorlar, korxonalar va tashkilotlarda kundalik vazifalarini hal qilinmoqda, vaqtni tejalmiqda, xarajatlar optimallashtirilmoqda, daromadlilik oshirilmoqda, eksportni yo‘lga qo‘yilmoqda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hamda taklif etilayotgan tovar va xizmatlar sifati yaxshilanmoqda.

Hozirgi kunda kapitalizatsiyasi 1 milliard AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan taxminan 200 ta platforma mavjud. Ushbu kompaniyalarning umumiy bozor qiymati 4,5 trillion AQSh dollaridan oshadi. Raqamli platformalarning eng yuqori to‘planganlik holati Osiyoda kuzatiladi – ya’ni 80 tadan ortiq, ikkinchi o‘rinda Shimoliy Amerika – 60 tadan ortiq. Aksariyat platforma-kompaniyalar tranzaksiya platformalar hisoblanadi. Bu guruhga umumiy bozor qiymati 1,1 trillion AQSh dollarini tashkil etuvchi taxminan 160 ta platforma kiradi. Ular ijtimoiy tarmoqlar, tovar savdosi bo‘yicha onlayn-do‘konlar, media, musiqa, moliyaviy xizmatlar va kompyuter o‘yinlariga ixtisoslashgan platformalarni o‘z ichiga oladi¹.

2030-yilgacha bo‘lgan davlat taraqqiyot strategiyasi (“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi)ga ko‘ra, joriy o‘n yillik oxiriga kelib, mamlakat axborot texnologiyalari bo‘yicha Markaziy Osiyodagi yetakchi hudud — “IT-HUB”ga aylanishi, IT-xizmatlar eksport hajmini yiliga 5 milliard AQSh dollariga yetkazishi, O‘zbekistonda IT-kompaniyalar vakolatxonalarini 1000 taga yetkazishi hamda IT-sohasida 300 ming nafar yoshlarni bandlik bilan ta’minlashi ko‘zda tutilgan².

Dissertatsion tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ–3724-sonli “Elektron tijoratni jadallik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18- yanvardagi 48-sonli “O‘zbekiston Respublikasida “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, elektron tijoratning geolokatsion platformasi konsepsiyasini takomillashtirishga bag‘ishlangan dissertatsiya mavzusi zamonaviy bozor ehtiyojlari va muammolariga javob beruvchi dolzarb va talab yuqori bo‘lgan yo‘nalish hisoblanadi. U yangi texnologiyalarni rivojlantirish, foydalanuvchi tajribasini oshirish, aholining, ayniqsa, biznes subyektlari va turizm sektori faolligini oshirishga yordam beradi, bu esa kuchayib borayotgan raqobat sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasida ilmiy tadqiqotlar, raqamli

¹ Воскресенский Владимир Юрьевич. О цифровой трансформации мировой экономики // Российский внешнеэкономический вестник. 2024. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-tsifrovoy-transformatsii-mirovoy-ekonomiki>.

² <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2023/11/30/world-bank-to-support-uzbekistan-in-developing-the-digital-economy-and-creating-new-jobs-in-the-it-sector>

texnologiyalar, elektron tijorat va innovatsion iqtisodiyot sohalari taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Har yili xorijiy olimlar, iqtisodchilar va ekspertlar tomonidan veb-saytlar, raqamli platformalar va mobil ilovalarni tashkil etish, ishlab chiqish, joriy etish, yangilash va ularning faoliyat yuritishiga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar va yangiliklar chop etilmoqda. Veb-sayt tashkil etish, buyurtmachi, dizayner va dasturchi bilan o'zaro hamkorlik, turli dasturlash tillari va maxsus dasturlar yordamida dinamik veb-saytlar yaratish masalalari D.Rifkin, A.Moazed, N.Jonson, U.Kesenberi, D.Braun, R.Nikson, R.K.Martin, A.Allan singari mutaxassislar asarlarida bayon etilgan³.

Shuningdek, I.Z.Gelisxanov, T.N.Yudina, A.V.Babkin, A.M.Zenevich, M.V.Ryjkova, T.A.Golovina, T.S.Narolina, A.Yu.Kontareva va boshqalar tomonidan yozilgan ishlar e'tiborga loyiqdir. Bu tadqiqotlarda platformalarni tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yishning nazariy asoslari va amaliy tajribalari, shuningdek, ularning mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri yoritilgan⁴.

Shuningdek, turli raqamli platformalar va mobil ilovalarni ishlab chiqish va joriy etishga bag'ishlangan mahalliy olimlarning tadqiqotlari ham qiziqish uyg'otadi. Elektron tijoratda platformaviy yechimlardan foydalanish bilan bog'liq izlanishlar S.S.G'ulyamov, D.X.Suyunov, A.T.Kenjabayev, A.T.Shermuxamedov, Sh.Sh.Shoh'azimiy, V.K.Abduvohidov, Yo.A.Abdullayev, I.K.Mirzayev, Sh.G.Odilov, D.M.Rasulov, Z.X.Toshmatov, N.X.Xaydarov, G.R.Baltaboyeva, T.Sh.Shodiev singari olimlar tomonidan olib borilgan⁵.

³ Рифкин Д. Третья промышленная революция: как горизонтальные взаимодействия меняют энергетику, экономику и мир в целом. — М.: Альпина нон-фикшн, 2014. — 410 с.; Моазед А., Джонсон Н. Платформа: практическое применение революционной бизнес-модели. — М.: Альпина Паблишер, 2019. — 288 с.; Кесенбери У. Сторителлинг в проектировании интерфейсов. — СПб.: Питер, 2013. — 336 с.; Браун Д. М. Разработка веб-сайта: взаимодействие с заказчиком, дизайнером и программистом. — СПб.: Питер, 2010. — 336 с.; Никсон Р. Создаём динамические веб-сайты с помощью PHP, MySQL и JavaScript. — М.: Эксмо, 2016. — 768 с.; Мартин Р. К. Чистый код: создание, анализ и рефакторинг. — СПб.: Питер, 2016. — 464 с.; Аллан А. Программирование для мобильных устройств на iOS. — СПб.: Питер, 2013. — 416 с.

⁴ Гелисханов И. З., Юдина Т. Н., Бабкин А. В. Цифровые платформы в экономике: сущность, модели, тенденции развития // Научно-технические ведомости СПбГПУ. — 2018. — Т. 11, № 6. — С. 22–36; Зеневиц А. М., Пунчик З. В. Цифровая платформа как элемент цифровой экономики // Научные труды Белорусского государственного экономического университета. — 2019. — Вып. 12. — С. 187–193; Рыжкова М. В. Концептуализация феномена «цифровая платформа»: рынок или бизнес? // Вестник Томского государственного университета. — 2019. — № 47. — С. 48–66; Головина Т. А., Полянин А. В., Авдеева И. Л. Развитие цифровых платформ как фактор конкурентоспособности современных экономических систем // Вестник Пермского университета. Серия «Экономика». — 2019. — Т. 14, № 4. — С. 551–564; Наролина Т. С., Смотров Т. И., Некрасова Т. А. Анализ современного состояния цифровых платформ. // Наука Красноярья. — 2020. — Т. 9, № 2. — С. 184–205; Контарева А. Ю. Платформы как рынки, архитектуры, экосистемы: обзор основных подходов к изучению интернет-компаний // Социология власти. — 2021. — Т. 33, № 1. — С. 169–192.

⁵ Kenjabayev A.T., Ikramov M.M. Perspektivy razvitiya IKT i elektronnoe pravitelstvo v ekonomike Uzbekistana. // Ekonomika, statistika i informatika, 2015. №2. 221-223 б.; Кабулов В.К. Кибернетическая наука Узбекистана: прошлое, настоящее, будущее. // Проблемы информатики и энергетики. — Ташкент, 2004. - №1. 3-4 б.; Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т. Development of digital economy in the republic of Uzbekistan. VII Uzbek-Indonesian Joint international scientific and practical conference "Innovative development of entrepreneurship" with the framework of scientific and research project "Global economic challenges and national economy development" Tashkent-Jakarta, 2018. September. -180-183 p.; Шохъязимий Ш.Ш. Трактат о смарт цифровой Республике. Монография. — Т.: «Инновацион ривожланиш» нашриёт-матбаа уйи, 2020. 32-34 б.; Кучкаров Т.С. Совершенствование информационной системы казначейства Республики Узбекистан в условиях цифровой экономики: Автореф. дис. докт. эконом. наук (DSc) «Совершенствование

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi mavzusi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Marketing va raqamli iqtisodiyot kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi elektron tijoratning geolokatsion platformasi konsepsiyasini ishlab chiqish va asoslashdan iborat bo'lib, unga uning faoliyat yuritish modellari, usullari va algoritmlarini tanlash, shuningdek, iqtisodiy samaradorlik va barqarorlikni baholash kiradi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

raqamli platformalarning hozirgi holatini tahlil qilish;

raqamli platformalarda buyumlar interneti texnologiyalari va geolokatsiyadan foydalanish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish;

geolokatsion axborot tizimlarini loyihalash algoritmlari va usullarini o'rganish;

raqamli platformalarda biznes jarayonlarining transformatsiyasini tadqiq qilish hamda gibridd biznes-modelga qo'yiladigan talablarni aniqlash;

geolokatsion platforma arxitekturasi, biometrik identifikatsiyaga asoslangan sotuvchilar ishonchliligi reytingi modeli va foydalanuvchilar o'zaro hamkorligi tizimini o'z ichiga oluvchi ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish;

geolokatsion platformaning iqtisodiy samaradorligini prognoz qilish va uning barqarorligi hamda tijorat jihatdan yashovchanligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "GOLD TEK" MCHJ ("Sagban" savdo belgisi) olingan.

Tadqiqotning predmetini elektron tijoratning raqamli platformalari, jumladan geolokatsion texnologiyalardan foydalanuvchi platformalar, shuningdek, iste'molchilarning ular bilan o'zaro aloqasidagi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlar va mexanizmlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy va statistik tahlil, konseptual loyihalash, umumlashtirish va klassifikatsiya, tizimli-funksional yondashuv, ekspert baholash, istiqbolli tahlil hamda matematik modellashirish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy ehtiyojlar va turli foydalanuvchilar toifalariga moslashtirilgan, e'lonlar taxtasi va marketplace funksiyalarini birlashtiruvchi, C2C, B2B, B2C, C2B singari gibridd biznes-model asosidagi elektron tijoratning geolokatsion platformasi konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

foydalanuvchilar ishonchini oshirish, obro' va tranzaksion xatarlarni kamaytirish hamda konversiya ko'rsatkichlarini yaxshilashni ta'minlovchi biometrik identifikatsiyaga asoslangan sotuvchilar va ijrochilarning ishonchlilik reytingi asoslangan va amaliyotga joriy etilgan;

информационной системы казначейства Республики Узбекистан в условиях цифровой экономики» по специальности 08.00.14 – Информационные системы и технологий в экономике. – Ташкент, 2019, 76 б.; Аюпов Р.Х., Джуманиязова М.Ю. Цифровая трансформация в сельском хозяйстве Республике Узбекистан. // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2019; Мусалиев А.А., Бегалов Б.А., Мохова Е.А. Системы электронного документооборота. Монография. Изд-во «ADIB» Литературного фонда Союза писателей Узбекистана. 2009. – 128 б.

geoxizmatlar, kontentni boshqarish tizimi, analitik modullar, foydalanuvchi interfeyslari va APIlarni o'z ichiga oluvchi integratsiyalashgan axborot tizimi yaratilgan hamda geolokatsion platforma arxitekturasi taklif qilingan. Bu tuzilma mahalliy bozor shaffofligini ta'minlash, sotuv kanallarini kengaytirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va mintaqaviy raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi;

geolokatsion platformaning iqtisodiy samaradorligi prognoz qilinib, turli rivojlanish ssenariylari asosida potentsial daromad va sof foydani hisoblash orqali uning barqarorligi va tijoratga layoqatliligi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gibrid biznes-model asosidagi geolokatsion platforma konsepsiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan, bu esa shaxsiylashtirilgan e'lonlarni qidirishni ta'minladi va qulaylik hamda impulsiv talab ortishi hisobiga o'rtacha xarid chekini oshirgan;

biometrik identifikatsiyaga asoslangan sotuvchilarning ishonchlilik reytingi joriy qilingan, natijada foydalanuvchilar ishonchi oshgan, firibgarlik va qaytarish xavflari kamaygan hamda konversiya ko'rsatkichlari yaxshilangan;

geoxizmatlar, analitika va APIlarni o'z ichiga oluvchi integratsiyalashgan axborot tizimi va platforma arxitekturasi yaratilgan, bu esa mahalliy bozor shaffofligini ta'minlagan, savdo hajmi o'sishi hamda kichik biznes va turizm sektori uchun sotuv kanallarining kengayishini ta'minlagan;

platformaning iqtisodiy samaradorligi prognoz qilinib, uning barqarorligi va yuqori daromad keltirish salohiyati elektron tijorat bozorining jadal o'sish sharoitida tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shundaki, qo'llanilgan metodologik yondashuv, taqqoslama tahlil, konseptual loyihalash va statistika usullari rasmiy manbalar hamda sinovdan o'tgan ilmiy-nazariy qoidalarga asoslangan. Keltirilgan xulosa va takliflarning samaradorligi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga amaliy joriy etilishi orqali tasdiqlangan. Olingan natijalar ilmiy-amaliy konferensiyalarda sinovdan o'tkazilgan, ilmiy nashrlarda chop etilgan va ilmiy ishlanmani davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma bilan tasdiqlangan bo'lib, bu ularning ishonchlilik va haqqoniylikka qo'yilgan talablariga mosligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ish nazariy va amaliy xarakterga ega. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular raqamli va geolokatsion platformalarni loyihalash hamda ularning faoliyatini tashkil etish sohasidagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin, elektron tijoratda "narsalar interneti" texnologiyasi va biometrik identifikatsiyadan foydalanish bo'yicha nazariy yondashuvlarni kengaytiradi, shuningdek, gibrid biznes-modellarni (C2C, B2B, B2C, C2B) shakllantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash borasidagi bilimlarni chuqurlashtiradi.

Amaliy ahamiyati esa shundan iboratki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar elektron tijoratning geolokatsion platformalarini yaratish va rivojlantirish jarayonida qo'llanishi mumkin. Bu platformalar tovar va xizmatlarning tezkor va shaxsiylashtirilgan qidiruvini ta'minlaydi, sotuvchilarning ishonchlilik reytingi orqali foydalanuvchilar ishonchini oshiradi, shuningdek, kichik biznes va turizm

sohasida sotuv hajmini ko'paytirish hamda realizatsiya kanallarini kengaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari tadbirkorlik subyektlari va raqamli infratuzilma tashkilotlari faoliyatida, shuningdek, iqtisodiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida "Elektron tijorat", "Raqamli iqtisodiyot", "Axborot tizimlari" va "Biznes-modellashtirish" fanlarini o'qitishda qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektron tijoratning geolokatsion platformasi konsepsiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy yangiliklar amaliyotga joriy etilgan:

e'lonlar taxtasi va marketpleys funksiyalarini birlashtiruvchi gibril biznes-modelga (C2C, B2B, B2C, C2B) asoslangan geolokatsion elektron tijorat platformasi konsepsiyasi bo'yicha taklif "GOLD TEK" MChJ ("Sagban" savdo belgisi) amaliy faoliyatiga joriy etilgan ("GOLD TEK" MChJning 2024-yil 21-maydagi 5/11-sonli ma'lumotnomasi). Joriy etish natijasida geolokatsiyaga asoslangan samarali qidiruv ta'minlandi va shaxsiylashtirilgan takliflar hamda impulsiv xaridlarni rag'batlantirish hisobiga o'rtacha chek 10 %ga oshgan;

sotuvchilar va ijrochilarning ishonchlik reytingini biometrik identifikatsiya asosida yaratish va joriy etish bo'yicha takliflar "GOLD TEK" MChJ (savdo markasi "Sagban") platformasida amalga oshirilgan ("GOLD TEK" MChJning 2024-yil 21-maydagi 5/11-sonli ma'lumotnomasi). Bu vositani joriy etish foydalanuvchilarni o'z vaqtida xabardor qilish va turli xil firibgarlik shakllarining oldini olishni ta'minlagan. Natijada firibgarlik holatlari va mahsulotni qaytarishlar 25 %ga kamaygan, bu esa foydalanuvchilarning ishonchini mustahkamlab, operatsion xarajatlarni kamaytirgan va konversiya ko'rsatkichlarini oshirgan;

geoservislar, kontentni boshqarish tizimi, analitika, interfeyslar va API ni o'z ichiga olgan integratsiyalashgan axborot tizimi va platforma arxitekturasi yaratish bo'yicha takliflar «ALI-YANGI DAVR IMP-EXP TEXTILE» MChJ QK faoliyatiga joriy etilgan ("ALI-YANGI DAVR IMP-EXP TEXTILE" MChJ QKning 2024-yil 21-maydagi 65-sonli ma'lumotnomasi). Ularning qo'llanishi fuqarolar va kompaniyalarga tovar va xizmatlardan tezkor va optimal foydalanish imkoniyatini, shuningdek, mahalliy bozor shaffofligini ta'minlagan. Natijada sotuvchilar savdo hajmini kamida 15 %ga oshirganlar, kichik biznes va turizm sektori daromadlari esa sotuv kanallarining kengayishi hisobiga 20 %ga oshgan;

geolokatsion platformaning iqtisodiy samaradorligini prognoz qilish bo'yicha takliflar biznes-modelning barqarorligi va tijoriy hayotiyiligini baholash vositasi sifatida joriy etilgan ("ALI-YANGI DAVR IMP-EXP TEXTILE" MChJ QKning 2024-yil 21-maydagi 65-sonli ma'lumotnomasi). Modellashtirish natijalari ko'rsatkichi, O'zbekiston elektron tijorat bozorining rivojlanishi sharoitida 2030-yilda platformaning sof foydasi rivojlanish ssenariylariga qarab 1,10 mln. dan 5,71 mln. AQSh dollarigacha yetishi mumkin, bu esa ishlab chiqilgan modelning yuqori daromad potensialini tasdiqlagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 6 ta maqola — O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop

etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, shuningdek, 3 ta tezis ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallarida e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 157 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zarurligi asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti hamda predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi bayon etilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijadorligi ko‘rsatib o‘tilgan, tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli platformalarning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamli platformalarning evolyutsiyasi yoritilgan, ularning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati o‘rganilgan, shuningdek, raqamli platformalarning tavsifi va tasnifi keltirilgan.

Raqamli platformalarning asosiy afzalligi shundaki, ular mijozlar, xodimlar va hamkorlar bilan real vaqt rejimida uzluksiz biznes jarayonlarini ta’minlaydi.

XXI asrga kelib, ta’minot zanjiri biznes qiymatining asosiy agregatori sifatida xizmat qilgan. Kompaniyalar va foydalanuvchilar o‘rtasidagi ishbilarmonlik va tijorat munosabatlari tarmoqda shakllana boshlagan, natijada ular o‘rtasidagi qiymat almashinuvi ham internetga ko‘chgan.

An’anaviy chiziqli biznes modellari ahamiyatini yo‘qota boshlab, platformali biznes modellarining ishlash mexanizmi dolzarb bo‘lib qoldi. Chiziqli biznes modelida kompaniya mahsulot yaratadi va uni yetkazib beruvchilarga (B) sotadi, ular esa o‘z navbatida, uni yakuniy mijozlarga (A) sotadilar (1-rasm).




1-rasm. Chiziqli biznes modeli⁶

Agar chiziqli biznes mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish orqali qiymat yaratsa, platformalar esa yangi o‘zaro aloqalarni mustahkamlash va tranzaksiyalarni amalga oshirish orqali qiymat yaratadi. Asosiy tranzaksiya

⁶ Platforma biznes modeli [Elektron resurs]. Murojaat rejimi: <https://www.dialog.guide/platformiennaia-biznies-modiel>.

platformaning “fabrikasi” bo‘lib, foydalanuvchilar uchun qiymat ishlab chiqaradi (2-rasm).




2-rasm. Turli biznes modellarda qiymat yaratish ekotizimi⁷

Asosiy tranzaksiya – iste’molchi va ishlab chiqaruvchining qiymat almashinuvi uchun bajarishi kerak bo‘lgan harakatlar to‘plami. Texnologiyalar rivoji tufayli bir ishlab chiqaruvchidan ko‘plab iste’molchilarga mahsulot yetkazib berish hajmi oshdi, bu esa tayyor mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirdi.

Platformalar atrofida tarmoq mavjud bo‘lishi shart, ammo bu tarmoq o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Platforma atrofidagi tarmoqni yaratish asosiy tranzaksiyaning yuzafa kelishi, natijada qiymat shakllanishiga olib keladi. Buning uchun platforma yordamchi faoliyat turlarini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Agar asosiy funksiyalarni yaxshi bajarsa, platforma qisqa vaqt ichida ko‘plab asosiy tranzaksiyalarni amalga oshira oladi.

Raqamli platformalarning hayotiy davri, ko‘plab axborot texnologiyalari mahsulotlaridek, uch bosqichdan iborat rivojlanish davriga ega (3-rasm).



3-rasm. Raqamli platformalarning hayotiy davri⁸

⁷ O‘sha joyda

⁸ Месропян В. Рақамли платформалар – янги бозор ҳокимияти [Электрон манба]. Мурожаат қилиш режими: <https://www.econ.msu.ru/sys/raw.php?o=46781&p=attachment>

Raqamli platformalarning evolyutsion tasnifi quyidagicha:

1. Amaliy dasturiy va apparat yechimlarini ishlab chiqish va joriy etish uchun raqamli muhitni shakllantirish (Android OS, iOS, Intel x86).
2. Aloqa infratuzilmasini ta'minlash va foydalanuvchilarga kontentni yetkazib berish (Telegram, ERAGLONASS, GPS va boshqalar).
3. Innovatsion biznes modellarini (Alibaba, eBuy, Amazon) amalga oshirish imkonini beruvchi raqamli bozor infratuzilmasini shakllantirish.
4. Bozorning raqamli infratuzilmasini shakllantirish va katta hajmli ma'lumotlarni qayta ishlash natijalari asosida foydalanuvchilarni boshqarish (Uber, Yandex Taxi).

2000-yildan keyin butun dunyo bo'ylab turli xil raqamli platformalar yuzaga keldi, ular internetda tomonlar o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish mexanizmlari sifatida xizmat qiladi. Raqamli platformalarning rivijlanishi asosan ularning ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va tahlil qilish, shuningdek, foydalanuvchilarning qiziqishlari va xatti-harakatlariga asoslangan xizmatlarni monetizatsiya qilish qobiliyatiga bog'liq.

Jahon banki tavsiyalariga ko'ra, raqamli platformalarni Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining 2025-yilgacha yagona raqamli makonni shakllantirish strategiyasining to'rtta ustuvor yo'nalishidan biri sifatida rivojlantirish belgilangan. Bu raqamli platformalarning innovatsiyalarni rivojlantirish va mintaqaviy darajada raqamli dividendlarni olish(iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, ish o'rinlarini yaratish, davlat xizmatlarini yaxshilash)dagi muhim o'rni bilan izohlanadi. Raqamli platformalarni joriy etish transchegaraviy biznes mexanizmlari va tamoyillarini optimallashtirish, xalqaro tranzaksiyalar xarajatlarini kamaytirish, tadbirkorlarga ko'proq potentsial mijozlar bilan samaraliroq ishlash imkoniyatini taqdim etishga yordam beradi⁹.

Shuni yodda tutish kerakki, har bir texnologiya ma'lum ko'rinmas tahdidlarni o'z ichiga oladi va foydalanuvchilarga ularga moslashish uchun vaqt kerak. Bunday tahdidlar qatoriga, masalan, xakerlik hujumlari, turli viruslar, qimor o'yinlari va shaxsiy hayotning buzilishi kiradi. Ular doimo yuzaga keladi, lekin kishilar ular bilan kurashishga harakat qiladilar.

Foydalanuvchilarga tahdidlarning oldini olish uchun biznes jarayonlarida foydalaniluvchi hamma ma'lumotlarni samarali va amaliy himoya qilishni ta'minlashga e'tibor qaratish lozim. Kiberxavfsizlikni yaxshilash maqsadida tarmoqlar, ma'lumotlar bazalari va platformalarning zaiflik darajasini aniqlash uchun kompaniyada IT auditini tashkil etish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Buyumlar interneti texnologiyalarini raqamli platformalarda qo'llash”** deb nomlangan ikkinchi bobida buyumlar interneti texnologiyalarining raqamli platformalarda qo'llanishi bo'yicha xalqaro tajriba tahlil qilingan, geolokatsion texnologiyalarning raqamli platformalarda qo'llanilish amaliyoti o'rganilgan, shuningdek, raqamli platformaning biznes jarayonlarini transformatsiya qilish vositasi sifatidagi vazifasi ko'rib chiqilgan.

⁹ The EAEU 2025 Digital Agenda: Prospects and Recommendations – Overview Report // World Bank. Режим доступа: <http://documents.worldbank.org/curated/en/850581522435806724/pdf/EAEU-Overview-Full-ENG-Final.pdf>.

Buyumlar interneti texnologiyalari raqamli texnologiyalar orasida turli iqtisodiyot sohalarida qo‘llanilish universalligi bilan ajralib turadi (1-jadval).

1-jadval

2023-yilda eng istiqbolli 10 ta buyumlar interneti (IoT) texnologiyalari¹⁰

Rang	Texnologiyalar	Muhimlik indeksi	Dinamiklik darajasi	Ommaviy joriy etish muddatlari
1	Tibbiyot buyumlari interneti (IoMT)	1		3-5 yil
2	Tumanli hisoblash va bulutli buyumlar interneti (IoT)	0,97		1-2 yil
3	Mobil buyumlar interneti	0,81		1-2 yil
4	Sun'iy buyumlar interneti (AIoT)	0,7		3-5 yil
5	Aqlii shaharlar / uy uchun buyumlar interneti	0,58		1-2 yil
6	Robototexnik buyumlar interneti (IoRT)	0,23		3-5 yil
7	Sun'iy yo'ldosh buyumlar interneti	0,21		4-6 yil
8	Kiyiladigan qurilmalar interneti	0,16		3-5 yil
9	Buyumlar interneti va periferik qurilmalarning integratsiyasi	0,12		1-2 yil
10	Transportdagi buyumlar interneti	0,09		1-2 yil
	Barqaror	O'sayotgan	Tez o'sayotgan	

Ko‘pgina mamlakatlarda buyumlar interneti (IoT) texnologiyalari faol ravishda sanoat ishlab chiqarishi, shahar infratuzilmasi, jamoat xavfsizligi, transport, turizm, ekologiya, logistika, chakana savdo, kontaktsiz to‘lovlar, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, meteorologiya, sog‘liqni saqlash va sport monitoringi sohalarida qo‘llanilmoqda. IoT texnologiyalarining texnologik mukammalligi oshgani sari, ularning asosidagi mahsulot va xizmatlar aholi va biznesga yanada qulayroq va arzonroq bo‘lib, amaliy muammolarni hal qilishda kengroq qo‘llanilmoqda¹¹.

IoT texnologiyalarining ahamiyatini aniqlash uchun 2018–2022-yillarda 5,7 mingdan ortiq ingliz tilidagi professional ommaviy axborot vositalari manbalari tahlil qilingan. Texnologiyaning ahamiyati indeksi uning manbalarda uchrashish chastotasi, atamaning o‘ziga xosligi va vektor markaziyliqi singari omillar asosida hisoblandi. Bu indeks texnologiyaning ilmiy-texnik yo‘nalish sifatida qanchalik aniqligi va boshqa yo‘nalishlar bilan qanday bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, dinamiklik indeksi texnologiyaning ahamiyatidagi o‘zgarish tezligini aks ettiradi. Biroq texnologiyaga yuqori talab va qiziqish uning ommaviy tarqalishga tayyorligini anglatmaydi. Ommaviy joriy etish muddatlari texnologiyaning ahamiyati, dinamikligi va mutaxassislarning baholari asosida aniqlanadi¹².

Har yili kundalik hayotimizda Internet buyumlari (IoT) texnologiyalari asosida ishlab chiqariluvchi turli xil qurilmalarning soni ortib bormoqda (4-rasm).


Boshqacha aytganda, atrofimizdagi maishiy va kompyuter texnikasi, mobil

¹⁰ O‘sha joyda.

¹¹ Вишнеvский К.О., Димов Г.В., Комаров М.М., Приворотская С.Г. Перспективы Интернета вещей. URL: <https://issek.hse.ru/news/808983139.html> <https://mcs.mail.ru/blog/iot-dlya-biznesa-primery>.

¹² Вишнеvский К.О., Димов Г.В., Комаров М.М., Приворотская С.Г. Перспективы Интернета вещей. URL: <https://issek.hse.ru/news/808983139.html> <https://mcs.mail.ru/blog/iot-dlya-biznesa-primery>.

qurilmalar singari buyumlar aqlli, samarali va amaliy jihatdan yanada foydali bo‘lib qoldi. Bu qurilmalar real vaqtda mustaqil ishlash qobiliyatiga ega bo‘lib, inson tomonidan boshqarilishi ham mumkin. Internet buyumlari texnologiyasining ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, qayta ishlash va boshqa obyektlarga uzatish xususiyatlari foydalanuvchiga ularni “aqlli uy” yoki “aqlli ofis” singari yagona tizimda birlashtirish imkonini beradi.



4-rasm. Inson, makon va internet buyumlari¹³

IoT Analytics tahlillariga ko‘ra, 2027-yilgacha internet buyumlari bozori 483 mlrd. AQSh dollariga yetib, o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 19,4 %ni tashkil etadi. Bu o‘shishda eng yuqori sur‘at Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kuzatilib, u yerda CAGR 22 % bo‘lishi kutilmoqda. Shimoliy Amerikada bu ko‘rsatkich 20 %, Yevropada esa 16 % bo‘lishi taxmin qilinmoqda. Eslatib o‘tamiz, Extrapolate tahlilchilari avvalroq global aqlli ishlab chiqarish bozori 2021-yildagi 87,4 mlrd. AQSh dollaridan 2028-yilda 238,8 mlrd. AQSh dollarigacha o‘shishini prognoz qilgan edi. O‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 15,4 foizni tashkil etadi. Aqlli ishlab chiqarish yechimlari sun‘iy intellekt, buyumlar interneti, katta hajmli ma’lumotlar, kengaytirilgan reallik va mashinani o‘rganish texnologiyalaridan foydalanadi¹⁴.

Buyumlar interneti texnologiyalarini raqamli platformalarda joriy etish va qo‘llash bo‘yicha jahon tajribasi va istiqbollarini ko‘rib chiqish lozim.

AQSh. Amerika Qo‘shma Shtatlari buyumlar interneti (IoT) texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va foydalanish sohasida yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, “aqlli shaharlar” va sanoat interneti (IIoT) sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalar alohida ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish bosqichlarini kuzatish, harorat va uskunalarning ishlash holatini nazorat qilish uchun turli sensorlar keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar orqali ishlab chiqaruvchilar xarajatlarni kamaytiradilar, mahsulot sifatini yaxshilab, mehnat unumdorligini oshiradilar, foydani ko‘paytiradilar.

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁴ 2022 yilda IoT global bozori 201 milliard dollargacha o‘sdi. URL: <https://iot.ru/promyshlennost/v-2022-godu-mirovoy-rynok-iot-vyros-do-201-mlrd>

Mamlakatda buyumlar interneti texnologiyalarini qo‘llovchi raqamli platformalar faol rivojlanmoqda. Microsoft, Amazon, IBM va Cloudera kompaniyalarida maxsus IoT platformalari yaratilib, bu sohada yetakchi o‘rinlar egallangan.

Amazon Web Services (AWS) tomonidan taqdim etilayotgan bulutli xizmatlar IoT uchun maxsus paketni o‘z ichiga oladi. Bu paket qurilmalar uchun dasturiy ta‘minot (FreeRTOS, AWS IoT ExpressLink, AWS IoT Greengrass), boshqaruv xizmatlari (AWS IoT Core, AWS IoT Device Management, AWS IoT Device Defender) va tahlil xizmatlari (AWS IoT Analytics, AWS IoT Events, AWS IoT SiteWise)ni o‘z ichiga oladi. Bu xizmatlar mijozlarga qurilmalarni sinxronlashtirish, sensorlarni boshqarish, ma‘lumotlarni yig‘ish, lokal hisoblash, bulutga ulanish, xavfsizlikni oshirish, masofaviy boshqaruv, voqealarni monitoring qilish va ularga tezkor javob berish imkoniyatlarini beradi.

Daniya. Bu mamlakatda buyumlar interneti texnologiyalarini rivojlantirish, joriy etish va foydalanishga katta e‘tibor qaratiladi. “IoT ekotizimi” loyihasi doirasida Daniya kompaniyalari va jamiyatining raqamlilashuv darajasini oshirish maqsad qilingan. Bu loyiha doirasida Nordic IoT Center (Skandinaviya buyumlar interneti markazi) tashkil etilgan bo‘lib, u skandinaviya mamlakatlarning biznes tuzilmalariga buyumlar interneti ekotizimiga raqamli platforma orqali kirish imkonini beradi va bu mintaqani IoT texnologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash bo‘yicha dunyodagi muhim hududlardan biriga aylantirishga intiladi.

Raqamli platformalar www.secomea.com, www.connectedyou.io, www.globetracker.com, www.seluxit.com, www.wappsto.com, www.smooth-robotics.com, www.universal-robots.com ma‘lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, IoT/M2M ulanishini boshqarish uchun masofaviy dasturlash va muammolarni bartaraf etish xizmatlarini korporativ ulanishlarni orkestrlash, muzlatgichni kompleks masofadan boshqarish, veb-ilovalar do‘koni, payvandlash uchun innovatsion dasturiy ta‘minot, hamkorlikdagi robotlar xavfsizligi uchun dasturiy ta‘minot va aksessuarlarni taqdim etadi.

Daniyada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay sharoitlar va ekotizim startaplarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash hamda g‘oyalarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llashga xizmat qilmoqda. Bularga “Internet of Things” texnologiyasidan foydalangan holda ishlanmalar kiradi, masalan, g‘avvoslar uchun taqiladigan harakat kamerasi va sun‘iy intellektga asoslangan elektrokardio-grammalarni kuzatish uchun yechimlar, elektr energiyasi, isitish va suv iste‘molini o‘lchash asboblari, ruhiy kasalliklarni davolash platformasi, harakatni kuzatish, obyektlarni hisoblash, qadamlarni tahlil qilish, joylashishni aniqlash, holatni nazorat qilish va yorug‘lik tezligini o‘lchash uchun sensorlar, harakatni suratga olish uchun kostyumlar, bulutli platformadan foydalangan holda ko‘chalarni yoritishni boshqarish tizimlari.

Xitoy. Osiyo mamlakatlari orasida XXR buyumlar internetini (IoT) joriy etish va undan foydalanish bo‘yicha yetakchilardan biridir. Bunday texnologiyalarni rivojlantirish mamlakatda 2009-yilda boshlangan bo‘lib, Xitoy dunyoda ularni keng qo‘llab-quvvatlashni birinchi bo‘lib boshlagan davlatlardan biridir. Bu yo‘nalishda amaliy qadam sifatida 2014-yilda 1,6 milliard AQSh dollari miqdorida byudjetga

ega buyumlar internetining maxsus jamg'armasi tashkil etilgan. Shu vaqtdan boshlab jamg'arma bir qator grantlar va subsidiyalar moliyalashtirilgan. Shu yili Xitoyning 90 foizdan ortiq viloyatlari va shaharlarida narsalar interneti o'z texnologik rivojlanishining asosiy yo'nalishi sifatida qabul qilingan.

Dissertatsiyaning **“Elektron tijoratning geolokatsion platformasi konsepsiyasini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekistonda elektron tijorat platformalarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan, yangi konsepsiyaning xususiyatlari va geolokatsion platformasining maqsadli auditoriyasi, arxitekturasi va umumiy talablari taqdim etilgan.

O'zbekistonda chakana savdo hajmi 2024-yilda 31,1 milliard AQSh dollariga yetgan bo'lib, elektron tijoratning undagi ulushi 3 % atrofida bo'lgan. Bu ko'rsatkich Qozog'istonda 20 % ni, Belarusda 14 %ni tashkil etadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda elektron tijorat bozori 2023-yilda 543 milliard AQSh dollariga yetgan va 2027-yilga kelib, 1 milliard AQSh dollarigacha oshishi kutilmoqda (5-rasm)¹⁵.



*по данным Statista, Euromonitor, KPMG

5-rasm. O'zbekistondagi elektron tijorat bozori¹⁶

Respublikamizda internet-tijorat “Elektron tijorat to'g'risida”gi qonun bilan tartibga solinadi. Bu soha jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-sonli “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori e'lon qilingani uni qo'llab-quvvatlashda muhim turtki va asos bo'ldi.

“Elektron tijorat to'g'risida”gi eski tahriri 2004-yilda qabul qilingan qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 29-sentabrda yangi tahrirda imzolangach, sohada muhim o'zgarishlar kuzatildi.

Mamlakatda elektron tijorat rivojlanishining drayveri mahalliy bozorlar, xalqaro platformalar, mahalliy onlayn-do'konlar va xarid qilingan tovar va xizmatlar

¹⁵ O'zbekistonda elektron tijorat holati sharhi: “Raqamli iqtisodiyotni tadqiq qilish markazi” davlat muassasasi, 2023. URL: <https://infocom.uz/ru/obzor-ecom-uz>.

¹⁶ O'sha yerda.

uchun o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur to‘lov tizimlari hisoblanadi (6-rasm).



6-rasm. O‘zbekistonda elektron tijorat bozorining umumiy statistikasi¹⁷

Elektron tijorat sohasida tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish maqsadida “E-tijorat.uz” elektron tijorat subyektlari milliy reyestri yaratildi. Elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish maqsadida E-tijorat.uz elektron platformasi orqali Elektron tijorat subyektlarining Milliy reyestri tashkil etilgan. Bu reyestrqa, o‘z mahsulot va xizmatlarini asosan elektron tijorat orqali sotuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar ixtiyoriy va bepul asosda kiritiladi. Bunda ularning elektron tijorat orqali amalga oshirgan savdo hajmi umumiy savdo hajmining kamida 80 foizini tashkil etishi lozim. Reyestrqa kiritilgan subyektlar yagona soliq to‘lovini 2 foizlik stavkada to‘laydilar¹⁸.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi portali ma’lumotlariga ko‘ra, elektron tijorat subyektlari soni sezilarli darajada oshmoqda. 2023-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, ularning soni 159 tani tashkil etgan. Bu raqamga 52 ta elektron to‘lov tizimi, 35 ta bank mobil ilovalari, shuningdek, 72 ta internet-do‘kon va savdo maydonchalari kiradi. Joriy yil boshidan 1-avgustgacha bo‘lgan davrda elektron tijorat orqali amalga oshirilgan savdolar bo‘yicha umumiy cheklar summasi 28,4 trln. so‘mni tashkil etgan. Shuningdek, internet-do‘konlar va marketpleyslar mazkur summada 7,4 foiz ulushga ega bo‘lgan¹⁹.


Tahlillarga asoslanib, O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgani xulosa qilinadi: normativ-huquqiy baza takomillashtirilgan, eksport salohiyatini oshirish, xalqaro savdo va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlar orasida elektron

¹⁷ Markaziy Osiyoning elektron tijorat bozori: muammolar va istiqbollar. URL: <https://cart-power.ru/blog/rynok-elektronnoj-kommercii-centralnoj-azii-problemy-i-perspektivy>.

¹⁸ O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotini o‘rganish: 4 yil ichida IT sohasiga investitsiyalar 4 baravar oshdi. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/05/05/research>.

¹⁹ O‘zbekistonda elektron tijorat rivojlanishining muvaffaqiyat omillari. URL: <https://kapital.uz/electronaya-kommerciya-uzb>.

GraphQL API: Facebook tomonidan ishlab chiqilgan ochiq kodli so'rovlar tili va server muhiti bo'lib, mijoz va server o'rtasida ma'lumot almashishning samarali usulini ta'minlaydi;



8-rasm. Geolokatsion platformaning konseptual modeli²²


²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

OLAP (Online Analytical Processing): Katta hajmdagi murakkab tuzilishga ega ma'lumotlar bazasida statistik hisob-kitoblar, prognozlar va hisobotlar tayyorlash uchun mo'ljallangan analitik ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi;

Redis: NoSQL sinfiga mansub, "kalit – qiymat" ko'rinishidagi ma'lumotlar tuzilmalari bilan ishlovchi, ochiq kodli rezident ma'lumotlar bazasi boshqaruv tizimi;

TensorFlow Java: Google tomonidan ishlab chiqilgan mashinani o'rganish kutubxonasi bo'lib, sun'iy intellektni turli masalalarni hal qilishga o'rgatish imkonini beradi va oddiy chiziqli regressiyalardan tortib murakkab neyron tarmoqlargacha bo'lgan modellarni yaratish va o'rgatish uchun kuchli vosita hisoblanadi;

S3 (Simple Storage Service): Amazon tomonidan ishlab chiqilgan ma'lumotlar uzatish protokoli va obyektli saqlash xizmati bo'lib, ma'lumotlarni ierarxiyasiz va alohida kataloglarga bo'lmay, asl formatda saqlash imkonini beradi.



9-rasm. Geolokatsion platformasi konsepsiyasi arxitektura modeli²³

